



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Саидахроп Саидахмедович Фуломов, Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев, Мунаввархон Хаётовна Мухитдинова, Дилшод Субонкулович Пардаев Таълим сифати ва самарадорлигини оширишга қаратилган сунъий интеллектдан Янги Ўзбекистонни шакллантиришда фойдаланиш имкониятлари	5
Умар Худайбердиев Ўзаро манфаатли ҳамкорлик – иқтисодий ривожланишнинг муҳим омили	11
Соҳибназар Каримов “Авесто” жамият тараққиётининг иқтисодий мезонлари ҳақида	14
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Abdumalik Bektemirov Яшил иқтисодиёт шароитида инсон капитални ривожлантириш: стратегик ёндашувлар ва барқарор ўсиш омиллари	19
Fazilat Esirgarpovna Jomonqulova, Nodir Rasulovich Zaynalov, Shohrux Djurabekovich Abdurasulov Korxonaning ERP axborot tizimini yaratishda xavfsizlik elementlari haqida	22
Мохигул Эркиновна Ахтамова Управление информационно-экономических систем цифровизации бизнеса и перспективы её развития в Республике Узбекистан	26
Abdumalik Bektemirov, Bekzod Muxiddin o‘g‘li Abduvaliyev Qurilishda investitsion va innovatsion faollikni oshirishning dolzarb masalalari	31
Қаюм Ҳамраевич Собиров Табиий қор-ёмғир суви ресурсидан оқилона фойдаланиш орқали мамлакатни сув танқислигидан сақлаб қолиш омиллари	34
Ashur Ali Rustam o‘g‘li Latipov, Abdulxofiz Jamshid o‘g‘li Hamrayev Sun‘iy intellekt yordamida xodimlarning mehnat samaradorligini monitoring qilish	42
Дилрабо Шермоновна Тухтамишева Рақамли технологиялар ёрдамида таълим муассасаларида ўқув сифатини юксалтириш йўналишлари	46
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Рузибой Нормакматов, Уктам Абдуғани ўғли Абдурайимов Озиқ-овқат маҳсулотларида кофеин миқдори, аҳамияти ҳамда хусусиятлари	51
Фарида Абдухалимовна Ахмеджанова Структурные особенности тканей как фактор формирования потребительских свойств текстильных изделий	54
Jamshidjon Sadullaevich Urazov Improving economic partnerships in the dairy value chain	59
Ruziboy Normaxmatov, Akram Gafurov, Oqila Satimbayeva, Xurmo – makro va mikroelementlarga boy mujizaviy mevadir	62
ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Rustam Tohir o‘g‘li Murodov, Pхom Achilovich Usmonov Qurilish obyektlarini loyihalashtirish jarayonining xususiyatlari	65
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Обид Мамаюнусович Пардаев Коммунал хизматлар самарадорлигини оширишга таъсир этувчи омиллар ва уларни аниқлаш йўллари	69

ТАДБИРКОРЛИК, МЕҲНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ

Rustam Tohir o‘g‘li Murodov – Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Biznesni boshqarish” kafedrasini o‘qituvchisi

Ixom Achilovich Usmonov – Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Biznesni boshqarish” kafedrasini professori v.b., t.f.n.

QURILISH OBYEKTLARINI LOYIHALASHTIRISH JARAYONINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Bugungi kunda investitsiyalarni o‘zlashtirishda zamonaviy, istiqbolli texnik va texnologik yechimlarni qo‘llash, investitsion loyihalarning samaradorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu vazifa qurilish obyektlarini loyihalash jarayonida amalga oshiriladi, shuning uchun loyihalashtirish jarayonini boshqarish dolzarb muammo hisoblanadi. Maqolada qurilishda loyihalashtirishga jarayonli yondashuv asosida tahlil qilish uslubiyatini rivojlantirish masalalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: investitsion-qurilish jarayoni, loyihalash, jarayonli yondashuv, bosqichlar, ta‘sir kuchlari, natijalar.

Kirish. Qurilish sohasining rivojlanishi mamlakatimizda investitsion siyosatining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi, shu sababli mazkur muammo O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qat‘iy nazoratga olingan. 2025-yilning o‘zida qurilishdagi islohotlar masalalari to‘rtta Prezident ishtirokidagi videoselektorlarda muhokama markazida bo‘lgan hamda Prezident Farmoni [1] va Vazirlar Mahkamasining qaroriga asos bo‘lgan [2]. Mazkur yig‘ilishlar va hujjatlarda qurilish sohasidagi muammolarni hal qilish bo‘yicha vazirliklar va idoralar oldiga qator vazifalar belgilab berildi, jumladan, qurilish va loyihalash ishlarining sifatini oshirish; qurilishda zamonaviy materiallar qo‘llash; energiya tejankor va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish; qurilish sohasida raqamli boshqaruvni kuchaytirish; shaharsozlik standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish va boshqalar.

Ko‘rinib turibdiki, qurilish sohasidagi muammolar va ularning yechimlari nafaqat amaliy harakatlar va dasturlar, balki nazariy-uslubiy mazmunga ega. Ko‘rsatib o‘tilgan har bir yo‘nalish tarkibida turli fanlarga taalluqli tadqiqotlarni olib borish zarurati katta o‘rin egallaydi.

Muammoning yechimidan biri investitsion-qurilish jarayonini tashkil qilishning ilmiy-uslubiy jihatlarini rivojlantirish, mavjud qonuniyatlar va tendensiyalarni aniqlash va takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Ayniqsa, investitsion-qurilish jarayonining alohida bosqichlarini tadqiq qilish uslubiyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Loyihalashtirish bosqichi investitsion qurilish jarayonining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri bo‘lganligi sababli, uni tadqiq qilish bir qancha ilmiy yondashuvlarni kompleks qo‘llanishini taqozo qiladi. Avvalambor, qurilish loyihasi mohiyatidan kelib chiqsak, uni murakkab va yirik tizim sifatida qaralishi lozim. Bunda tizim elementlari nafaqat ijrochi va resurslar, balki qurilish loyihasining tarkibiy qismlari ham muhim o‘rin egallaydi. Tizimli yondashuvni qo‘llash uslubiyati loyiha bosqichini elementlarini aniqlash hamda ular o‘rtasidagi tashkiliy, texnik, texnologik va iqtisodiy aloqalarni o‘rganishga asoslanadi.


Metodologiya. Olib borilgan izlanishlar jarayonida bizlar jarayonli yondashuv, nazariy-uslubiy tahlil, dekompozitsiya, mantiqiy tahlil hamda menejment fanida qo‘llaniladigan umue’tirof etilgan tanqidiy usullardan foydalanganmiz.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili. Qurilish sohasida loyihalashtirishning mohiyati va investitsion-qurilish jarayonidagi o‘rnini ochib berilishi ko‘plab mahalliy va xorijiy adabiyotlarda amalga oshirilgan [3,4,5]. Shu bilan birga loyihalashning xususiyatlari va tartibi bo‘yicha respublikamizda bir qancha ilmiy ishlanmalar bajarilgan [6,7,8]. Mazkur masala bo‘yicha qurilish sohasining me‘yoriy-texnik talablarida ham loyihalarning sifatini ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqilgan [9].

Amaliyotda keng qo‘llaniladigan yondashuv loyiha bosqichini jarayon sifatida qabul qilishga asoslanadi. Boshqaruv fanida jarayonli yondashuv har qanday tadqiqot obyektini alohida bo‘g‘inga ajratishi, ularning vaqt resurslari bilan bo‘g‘lanishini, hamda mazkur resursning ustuvor ahamiyatga egaligini ko‘zda tutadi.

Asosiy qism. Mavjud ilmiy uslubiy qarashlarning kamchiliklariga ularning faqat loyihalash jarayonining borishiga e‘tibor qaratganligidadir, ya‘ni ba‘zi qo‘llab-quvvatlovchi va ta‘minlovchi jarayonlar e‘tiborga olinmagan va har qanday loyiha tashkilotning ichki muammosi deb tan olingan.

Bizning tadqiqotimizda jarayonli yondashuvni qo‘llash uchun loyihani ketma-ket bosqichdan tarkib topgan ishlab chiqarish va tashkiliy jarayoni sifatida namoyon qilinishini maqsad qilganmiz. Shu bilan birga ushbu jarayonning oddiy ketma-ketlikda emas, balki o‘zaro murakkab vazifalardan tarkib topgan boshqaruv uslubiyatini ajratishga e‘tibor qaratdik (1-rasm).



1-rasm. Loyiha ishlarini boshqarish jarayonining bosqichlari¹

Ushbu rasmda loyiha jarayoni bosqichlari bajarish uchun zarur resurslar, ushbu bosqichni keltirib chiqaradigan boshqaruv qaror va harakatlari, hamda bosqich o‘zaro bog‘lovchi kutilayotgan natijalar o‘z aksini topgan.

Ishlab chiqilgan yondashuvga ko‘ra loyihalash jarayonida bir qancha omillarning ta‘sirini aks ettiruvchi kompleks uslubiyatdan foydalanish zarur. Loyihalash jarayonining biz ajratgan sakkizta bosqichining amalga oshirilishi ushbu bosqichlarga parallel ravishda bajarilishi lozim bo‘lgan shartlar majmuasi tomonidan belgilab beriladi:

1. Loyihani bajarishning har bir bosqichi zarur resurslar bilan ta‘minlanishi lozim. Zarur resurslar deganda ma‘lum bosqichni bajarish uchun loyiha tashkilotining moddiy-texnik resurslari, jihozlari va me‘yoriy-texnik hujjatlar bilan ta‘minlanganligi tushuniladi.

Ushbu shartning tashkiliy-boshqaruv xususiyati shundaki, yuqoridagi resurslarni sohagacha jalb qilish, tayyorlash hamda faollashtirish loyiha uchun mas‘ul rahbar-xodimlarning vazifasi hisoblanadi. Agar bosqichning tayyorgarlik ishlarini alohida jarayon deb tan olinsa, loyiha ishlarini boshqarish jarayonida yana bir mustaqil harakatlar zanjiri paydo bo‘lib, uning ijrochilari funksiyalar rahbar xodimlar va mutaxassislar hisoblanadi.

2. Loyihalashning har bir bosqichini boshlash uchun zarur ruxsatnomalar va asoslovchi

¹ muallif tomonidan ishlangan

hujjatlar bo‘lishi lozim. Tashkiliy jihatdan bosqichlarni bog‘lab turuvchi talab shundan iboratki, keyingi bosqichga o‘tish uchun oldingi bosqich talab darajasida bajarilganligi tasdiqlanishi lozim. Demak, jarayonni davom etish ma‘lum shakldagi hujjatlar oqimi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mazkur talablar loyihaning sifati va samaradorligini ko‘rsatuvchi tizimning bir qismi bo‘lib xizmat qiladi.


Yuqoridagi ilmiy taxminni qabul qiladigan bo‘lsak zarur ruxsatnomalar ham zarur shart-sharoitlarning bir qismi bo‘lib qabul qilinadi. Loyihalash jarayonida buyurtmachi, texnik talablar bergan tashkilotlar va boshqa manfaatli tomonlarning shartlari bosqichdan bosqichga o‘tishda to‘xtashlarga olib kelishi mumkin.

3. Loyihalashning samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan yana bir shart bu har bir bosqichni tugallanganligini tasdiqlovchi natijadir. Tayyor qurilish loyihasi loyiha tashkiloti uchun yakuniy mahsulot bo‘lib hisoblanada, har bir bosqich natijasi oraliq mahsulot vazifasini bajaradi, demak uning ham sifati baholanishi mantiqan zarur hisoblanadi.

Bosqich yakunlanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish (dalolatnoma, kelishuv va boshqalar) loyihalash jarayonidagi harakatlarning ulushi zanjirini tashkil qiladi. Ma‘lum jihatdan bosqichning natijasini tasdiqlash ham ularning uzluksiz bajarilishi va loyihalash muddati o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Muhokama. Qurilish obyektlarini loyihalash jarayonining samaradorligini ta‘minlashda yuqoridagi shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda jarayonning ichki va tashqi ishtirokchilari o‘rtasida tashkiliy-iqtisodiy bog‘liqliklarni kuchaytirish zarur degan fikrga keldik. Loyihalash jarayonining ichki ishtirokchilariga loyiha tashkilotining rahbar xodimlari, loyiha shartnomasi a‘zolari, loyihalash bosqichida esa undan oldingi va keyingi bosqichlar bo‘yicha mas‘ullarni kiritish mumkin. Tashqi ishtirokchilarga jarayonda ishtirok etmaydigan manfaatli tomonlar, ya‘ni buyurtmachi, pudratchi, shaharsozlik tashkilotlari va boshqalar kiritiladi.

Shunga asosan, loyihalash jarayonining samaradorligini ta‘minlash uchun har bir bosqichga ta‘sir ko‘rsatuvchi kuchlarni aniqlash va o‘zaro muvofiqlashtirishni taklif qilamiz (2-rasm).



2-rasm. Loyihalash bosqichiga ta‘sir qiluvchi asosiy kuchlar*

*muallif tomonidan ishlangan

Rasmda keltirilgan kuchlarning o‘zaro mutanosibligini ta‘minlash bo‘yicha ilmiy-uslubiy jihatdan quyidagi algoritmik qo‘llash mumkin deb hisoblaymiz:

- kuchlarni bildiruvchi subyektlarni identifikatsiyalash;
- loyihalash bosqichining nazorat qilinadigan parametrlarini aniqlashtirish;
- kuchlarning ta‘sir darajasi va yo‘nalishini baholash;
- barcha subyektlarning funksiyalari, vakolatlari va natijalarini belgilash;
- natijaning aniq o‘lchanadigan shakli va miqdorini aniqlash.

Yuqoridagi algoritm nazorat loyihalashning alohida bosqichida balki butun jarayonga nisbatni qo‘llanishi uchun natijalarni kompleks baholash tizimi yaratiladi.

Xulosava takliflar. Qurilish obyektlarini loyihalashda jarayonli ishtirokchilarining harakatlarini boshqarishga bog‘liq, bu esa ularning funksional vazifalarini to‘la hajmda bajarilishini talab qiladi. Biz olib borgan izlanishlar va tavsiyalar loyiha tashkilotlarida menejment funksiyalarini takomillashtirishga imkon yaratib beradi.

Qurilish obyektlarini loyihalash jarayoni – bu texnik, iqtisodiy va estetik talablarga javob

beruvchi, kompleks yondashuvni talab qiladigan ko‘p bosqichli jarayondir. Ushbu jarayonning samaradorligi loyihalash bosqichida qabul qilinadigan yechimlarning to‘g‘riligiga, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash darajasiga va ekologik hamda me‘yoriy talablarning to‘liq hisobga olinishiga bog‘liq.

Loyihalash jarayonining asosiy xususiyati – bu tizimlilik, innovatsion yechimlarga tayanish, axborot texnologiyalarini (BIM, CAD, 3D-modellashtirish va boshqalar) keng joriy etish hamda muhandislik va iqtisodiy tahlilning uzviy bog‘liqligidir. Shu bilan birga, loyiha hujjatlari sifatining yuqoriligi qurilish jarayonining xavfsizligi, samaradorligi va iqtisodiy tejamkorligini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, qurilish obyektlarini loyihalashda ilmiy yondashuv, texnik me‘yorlarga rioya qilish, ekologik barqarorlik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash – zamonaviy qurilishning raqobatbardoshligini ta‘minlaydigan asosiy omillardir. Shu sababli, loyihalash bosqichi nafaqat texnik jarayon, balki butun qurilish tizimining strategik negizidir.

Foydalanilgan adabiyotlarro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.04.2025 yildagi **Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat nazoratini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-66-son Farmoni**
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 15 sentyabrdagi **“Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi reytingini joriy etish to‘g‘risida”gi 580-son Qarori**
3. Abdullayev A.X. **Qurilish iqtisodiyoti va boshqaruvi.** – T.: Toshkent arxitektura-qurilish instituti, 2021. – 312 b.
4. Nazarov B.B. **Investisiya loyihalarini iqtisodiy tahlil qilish.** – T.: Iqtisod, 2020. – 285 b.
5. Umarov Sh., Kadirov O. **Qurilish sohasida loyiha boshqaruvi asoslari.** – Samarqand: SamDAQI, 2022. – 240 b.
6. Gorse, C.A., Johnston, D., & Pritchard, M. **A Dictionary of Construction, Surveying, and Civil Engineering.** – Oxford University Press, 2021. – 640 p.
7. Winch, G. **Managing Construction Projecs: An Information Processing Approach.** – 3rd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2022. – 560 p.
8. Ashurov M.M., Tursunov D.R. **Qurilish sohasida innovasion texnologiyalarni joriy etish asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 280 b.
9. Bekmurodov A., Yusupov N. **Loyihalashtirish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi.** – Samarqand: SamDAQI nashriyoti, 2021. – 245 b.
10. Karimov A.A. **Investision loyihalarni boshqarish tizimlari.** – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 268 b.
11. Yuldashev F.I. **Qurilish sohasida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlari.** – Toshkent: Innovasion taraqqiyot, 2024. – 300 b.

<p>Р.Муродов, И.Усманов</p> <p>Особенности процесса проектирования строительных объектов</p>	<p>R.Murodov, I.Usmanov</p> <p>Features of the process of designing construction projects</p>
<p>Аннотация. Сегодня применение современных, перспективных технико-технологических решений в освоении инвестиций положительно сказывается на эффективности инвестиционных проектов. Эта задача реализуется в процессе проектирования объектов строительства, поэтому управление процессом проектирования является актуальной проблемой. В статье изложены вопросы разработки методики анализа на основе процессного подхода к проектированию в строительстве.</p> <p>Ключевые слова: инвестиционно-строительный процесс, проектирование, процессный подход, этапы, силы воздействия, результаты.</p>	<p>Abstract. Today, the use of modern, promising technical and technological solutions in the development of investments has a positive effect on the effectiveness of investment projects. This task is carried out in the design process of construction objects, so that the management of the design process is an urgent problem. The article describes the issues of developing the methodology of analysis on the basis of a process approach to design in construction.</p> <p>Keywords: investment-construction process, design, process approach, stages, impact force, results.</p>

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.